

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TARBIYALANUVCHILARIDA MILLIY G'URUR HISSINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

Kadirova Shaxnoza Xudoyberdievna
*Termiz davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta'lism metodikasi
kafedrasiga katta o'qituvchisi PhD*

Anotasiya. *Maktabgacha ta'lism tashkilotlarida muntazam tashkil etiladigan, tarbiyalanuvchilarni Vatanga sadoqat, milliy g'urur va buyuk ajdodlar ma'naviy merosiga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlar jarayonida xalqimizning boy ma'naviy-madaniy merosi, sharqonq va umumbashariy qadriyatlar asosida mamlakat, millat kelajagini belgilaydi.*

Резюме. *Богатое духовное и культурное наследие нашего народа, будущее страны и нации определяет будущее страны в процессе духовно-просветительской работы, которая регулярно организуется в дошкольных образовательных учреждениях.*

Summary. *The rich spiritual and cultural heritage of our people, the future of the country and nation determines the future of the country in the process of spiritual and educational work, which is regularly organized in preschool educational institutions.*

Tarixdan ma'lumki, ilmli va ma'rifatli kishilar doimo izzat va hurmatda bo'lishgan. Chunki, ilm har qanday kishini bu dunyoda yor-birodarlari o'ttasida hurmatli bo'lishiga sababchi bo'ladigan narsadir. «Yoshlikda olingan bilim go'yo toshga o'yilgan naqsh kabidir»-degan hikmatli maqol bor. SHunday ekan, foydali ilm olishga barchamiz yoshlikdan xarakat qilishimiz kerak.

Bugungi kunning eng dolzarb yana bir masalalaridan biri-bu mustaqil davlat talablariga javob beradigan yosh avlodni voyaga yetkazish, kadrlar tayyorlash, uzlusiz ta'lism-tarbiya tizimini milliy qadriyatlar va urf-odatlarimiz asosida yaratilishi. Mamlakatimiz ta'lism muassasalarida oxirgi yillarda yoshlarning ma'naviy tarbiyasiga katta ahamiyat berilmoqda. Ta'lism tarbiya milliy qadriyatlarni shakllantirish va rivojlantirishda asosiy o'rinni egallaydi. Tariximiz, madaniyatimiz, milliy urf-odatlarimizga e'tibor kuchaydi, yoshlarda milliy g'ururni shakllantirish va mustahkamlashga alohida ahmiyat berilayotganligi fikrlarimiz isbotidir.

Maktabgacha ta'lism sohasi uzlusiz ta'lism tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblanib, u har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahmiyat kasb etadi. Bolalarni madaniy-ma'naviy, axloqiy kamoloti suratlarini tezlashtirish, ta'lism-tarbiya ishlarini oqilona yo'lga qo'yish tadbirlarini amalga oshirishda maktabgacha ta'lism muassasalarining ahmiyati kattadir.

Maktabgacha ta'lism muassasalarida muntazam tashkil etiladigan, tarbiyalanuvchilarni Vatanga sadoqat, milliy g'urur va buyuk ajdodlar manaviy merosiga hurmat ruhida

tarbiyalashga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlar jarayonida xalqimizning boy ma'naviy-madaniy merosi, sharqona va umumbashariy qadriyatlar asosida mamlakat, millat kelajagini belgilaydigan ilg'or g'oyalarni, millatlararo do'stlik, hamjihatlikning ahamiyatini, yurtimizda tinchlik va barqarorlikni saqlashning zaruriyati va mohiyatini yoshlar qalbiga singdirish jarayonlariga yondashuv o'tmishtga, hodisa va voqelikka tahliliy yondashuvni tatbiq qilish bugungi kunda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Milliy qadriyatlarimizni tiklash, urf-odat va an'analarimizni asrab-avaylash, xususan, yosh avlod qalbi va ongiga Ona yurtga muhabbat, istiqlolga sadoqat tuyg'ularini chuqr singdirish, milliy g'oya targ'ibotini hamda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Barkamol avlodni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash ularda ona-yurtiga muhabbat tuyg'ularini, uni himoya qilish, asrab-avaylashga qaratilgan intilishlarini kuchaytirishga yordam beradi. Milliy jihatdan o'zligini anglagan insongina davlati oldida turgan asosiy maqsadlari nimadan iboratligini tushunib, xalq oldidagi mas'uliyatini chuqr anglaydi. Milliy urf-odat an'analar, milliy g'urur, milliy qadriyat, birdamlik va hamjihatlik tuyg'usi zaminida shakllangan vatanparvarlikni ham o'z ichiga oladi. "An'ana" -tarixiy taraqqiyot jarayonida va ijtimoiy ehtiyojlar orasida vujudga keladigan, avloddan-avlodga meros bo'lib o'tadigan, kishilar ma'naviy hayotiga ta'sir ko'rsatadigan madaniy hodisadir. An'ana o'ziga xos ijtimoiy hodisa sifatida majmuasi hisoblanadi.

Xalq an'analar - uzoq taraqqiyot jarayonida etnoslarning ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojlar asosida vujudga kelib, ularning aqliy-ijodiy faoliyati asosida, atrof-muhit, tabiat, mehnat jarayoniga bog'liq holda avloddan-avlodga o'tib, taraqqiy etgan va asrlararo ajdodlar fikri, orzu-o'yli, tajribalari, yutuqlari va boshqa qadriyatlarini mujassamlashtirgan beba ho ijtimoiy-madaniy merosga aylangan. Urf-odat kishilarning turmushiga singib ketgan, ma'lum muddatda takrorlanib turuvchi xatti-harakat, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari ko'nikmasidir. Masalan: kichiklarning kattalarga salom berishi, uy-xovlini tartibga keltirish, mehmonlarga alohida hurmat ko'rsatish, bayram arafasida keksa qariyalar, kasal ojiz, qiyngagan kishilar holidan xabar olish, qo'ni-qo'shnilarini biror ishiga yordam berish, hasharga borish kabilar o'zbek xalqiga xos yaxshi odatlar hisoblanadi. Yosh avlodlarda ona zaminga bo'lgan muhabbat, u bilan faxlanish qanchalik kuchli bo'lsa, Vatanni sevish, yuksak darajada e'zozlash kuchaysa, har bir inson o'z vatani tarixi, milliy qadriyatlar, o'zining ona tilisi, madaniyati, milliy urf-odatlari, an'analarini mukammal bilsa, millat taqdiri va istiqboli haqida chuqr tasavvurga ega bo'lsa, mustaqillik shunchalik mustahkam va barqaror bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagagi bolalarda milliy qadriyatlarni tarbiyalash zamirida vatanini, xalqini sevadigan, istiqlol g'oyalariga sadoqatli, mustaqil fikrlaydigan ijodkor shaxsni yetishtirish davlatning ta'lim sohasidagi siyosatning ustuvor vazifalaridan biri bo'lib, bu haqda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim sohasida "gi qonuni va "Kadrler tayyorlash milliy dasturi" da ta'lim tizimini tubdan isloq qilish, ma'naviy barkamol shaxsni yetishtirish davlat ahamiyatiga molik muhim vazifalardan biri ekanligi ko'rsatilgan. Mustaqillik-milliy

qadriyat, milliy g'urur, vatanga yurtga muhabbat, fidoiylik, mehr-shafqat, oqibat, ota-onaga hurmat tuyg'ularini kamol toptirishda cheksiz imkoniyatlar yaratdi. Mehr -shafqat, oqibat, o'zbekona hislat, hayot mazmunidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Maxmudov Y.F. "Milliy g'urur-ma'naviy komillik mezoni". T, Dizayn-Press 2011.327b.
2. Egamberdieva N, Raxmatullaeva D, Ismoilova G, "Maktabgacha ta'lif muassasalarida tarbiyaviy ishlarni tashkil etish jarayonlarini boshqarish", Toshkent,"Fan va texnologiya" nashriyoti, 2011-yil, 3-4b.
3. Otamuratov S, "O'zbekistonda ma'naviy-ruhiy tiklanish". Toshkent, "Yangi asr avlodi" 2003 yil, 113-b.